

**FARMATSEVTIKA SOHASIDA KORRUPSIYAGA
QARSHI KURASHISH ISLOHATLARI**

O'dayev Ravshanbek Kenjaboy o'g'li

*Toshkent farmatsevtika instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasи
o'qituvchisi*

Tohirova Aziza Tolibjon qizi

Toshkent farmatsevtika instituti talabasi

Dolzarbli. Zamonaviy farmatsevtika inson hayotini saqlab qolish va sog'liqni yaxshilashda muhim rol o'ynasa-da, dori vositalari sohasidagi korrupsiya bu maqsadlarga putur yetkazmoqda. Bugungi kunda sifatsiz mahsulotlarning bozorga chiqishi, ba'zi dori vositalarining haddan tashqari qimmatligi va boshqa bir qancha holatlar keng tarqalgan. Bemorlarning sog'lig'i va hayoti uchun muhim dori vositalarining turli xil korruption holatlarga qurban bo'layotgani ham asosiy muammolardan biri. Ishlab chiqarilayotgan dori vositalari orasida sifatsiz mahsulotlarning uchrayotganligi sog'liqni saqlash tizimiga bo'lgan ishonchni pasaytirmoqda. Insonlar dori vositalarini qabul qilayotganda ularning samaradorligiga shubha qilmaydi, xalqimiz farmatsevtlarga ishonadi. Biroq, farmatsevtika tizimida dorilar sifati emas, balki ular orqali kelayotgan daromad insonlar sog'lig'idan yuqorida turibdi. Shuningdek, xalqimizda ham ayb yo'q emas. Kasallikning oxirgi alomatlari boshlanmagunga qadar uni oldini olishni boshlamaydilar. Ayrim hollarda, ba'zi dori vositalari shifokorlar tomonidan noto'g'ri tavsiya qilinmoqda, chunki farmatsevtika kompaniyalari bularga moddiy manfaat evaziga ta'sir ko'rsatmoqda. Salomatlikning savdoga aylanib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun bu mavzuni chuqur tahlil qilish bugungi kunda dolzarbdir.

Tadqiqotning maqsadi. Farmatsevtika sohasidagi korrupsiya - dori vositalarini ro'yxatdan o'tkazish, sotish jarayonlarida shaxsiy yoki korporativ manfaat evaziga qonunni buzish orqali amalga oshiriladigan noqonuniy harakat hisoblanadi. Farmatsevtika sohasi insonlar salomatligi bilan bevosita bog'liq bo'lsa-da, korrupsiya bu yo'nalishni ham chetlab o'tmadi. Bu tarmoqdagi korrupsiya bemorlarning sog'lig'iga putur yetkazadi, sog'liqni saqlash tizimiga salbiy ta'sir qiladi. Shunday salbiy oqibatlarga olib kelayotgan ekan, nega farmatsevtika sohasida haligacha korrupsiya ildiz otib boryapdi? Nega talab darajasi yuqori bo'lgan dori vositalarining narxlari sun'iy ravishda oshirilyapti? Maqsad faqat shaxsiy manfaatmi? 2024-yilning 10 oyi davomida O'zbekistonda dori vositalariga jami 15.5 trillion so'm (taxminan 1.2 milliard dollar) sarflangan. Bu qiymatning 22% I mahalliy mahsulot, 78% i xorijiy mahsulotlar hisoblanadi. Dorixonalar tomonidan dori vositalarining narxlari

asossiz oshirilish holatlari aniqlanib, 11.6 milliard so‘m miqdorda olingan mablag‘lar aniqlangan. Masalan, Bolgariyadan import qilinadigan “Almagel” dori vositasini olaylik. Uning sotuv narxi 34.363 so‘m ko‘rsatilgan. Ammo, bu dori dorixonalarda 75 ming so‘m. O‘zbekistonda ishlab chiqariladigan “Mikan” preparatining cheklangan bahosi: 24840 so‘m, lekin poytaxtda joylashgan bir nchta dorixonalarda 35 ming so‘mdan kam emas. “Nazivin” preparati uchun 30 ming so‘mgacha narx belgilanishiga qaramay, u salkam 45 mingdan sotilyapdi. Bolgariyaning “Tabeks” tabletkasi O‘zbekistonda 256 mingdan oshmasdan sotuvga chiqarilishi kerak, lekin u poytaxtimizning bir nechta dorixonalarda 401 ming so‘mga sotilyapdi. Bunday misollar juda ham ko‘p. Narxlarning bunday sun’iy oshirilishiga sabab nima? Aslida dorilar narxlarining oshishiga bir nechta sabablar bor: ko‘pgina dori vositalari chet eldan import qilinadi. Agar valyuta kursi o‘zgarib, milliy valyuta qadrsizlansa, dorilar narxi tabiiyki, oshadi. Ishlab chiqaruvchidan dorixonagacha bo‘lgan tizimda bir nechta vositachi ishtirok etsa, har biri o‘z foydasini o‘shadi, ya’ni dorilar narxlari oshishiga sabab bo‘ladi. Bunday holatga talabning Keskin oshishi ham o‘z hissasini qo‘shmoqda. Mavsumiy kasalliklar davrida ayrim dorilarga bo‘lgan talabning oshishi ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar uchun ayni muddao. Har qanday holatda ham jamiyat bundan zarar ko‘radi. Agar davlat narxlarni qat’iy nazorat qilsa, korrupsiyani kamaytirsa va dori importini nazorat qilsa, sun’iy ravishda dorilarning narxi oshirilishini oldini olish mumkin. Dori vositalari narxining oshishi insonlarning sog‘lig‘i va ijtimoiy hayotiga katta ta’sir qiladi. Bunday holat natijasida ba’zi bemorlar sog‘lig‘i uchun zarur bo‘lgan dorilarni sotib ololmaydi. Surunkali kasalliklarga (masalan, diabet, yurak-qon tomir kasalliklari) chalingan bemorlar mutazam ravishda dorilar qabul qilishlari kerak, lekin narxlarning oshirilishi natijasida ayrim bemorlar moliyaviy holati sababli dorilarni sotib ololmasligi mumkin. Natijada, ularning sog‘lig‘i yomonlashadi, odamlar qimmat dorilardan qochib, o‘rniga arzonroq va sifatsiz dori vositalarini qabul qilishadi. O‘zbekistonda farmatsevtika sohasida korrupsiya muammosi jiddiy e’tiborga loyiq masala hisoblanadi. So‘nggi yillarda bu soha bo‘yicha bir qator korrupsiyaviy jinoyatlar fosh etilgan. Masalan, 2023-yil entabr oyida Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi va uning huzuridagi “Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashirish davlat markazi” DUK da moliyaviy xato va kamchiliklar, shuningdek, byudjet mablag‘larining noto‘g‘ri sarflanishi aniqlanib, jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan. Bundan tashqar, “DOK-1 MAKС” VA “AMBRONOL” siropining nojo‘ya ta’siri sababli “o‘tkir buyrak yetishmovchiligi” tashxisi bilan bolalar vafoti bo‘yicha qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi tergovi doirasida bir qator mansabdor shaxslar qamoqqa olingan.

Usul va uslublar. Ushbu maqolani yozishda asosan xolislik va taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Dorixonalar tomonidan 2024-yilda ortiqcha olingan mablag‘lar “spot.uz” sayti

orqali olindi. Dorixonalarda dori vositalarining aslida qanday narxda sotilishi kerak bo'lgan qiymatlari va dorixonalarda oshirilib sotilayotgan narxlari "uzpharm.control.uz" sayti orqali olindi.

Natijalar. Hududlar kesimida eng ko'p qonunbuzilish holatlari Toshkent shahrida (228 ta dorixona), Samarqandda (182 ta dorixona) va Toshkent viloyatida (134 ta dorixona) qayd etilgan. 04.01.2016-yilda "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risidagi qonunga o'zgartirishlar kiritilib, sifatsiz va qalbakilashtirilgan dori vositalarini muomaladan chiqarish va yo'q qilish tartibi belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-noyabridagi PQ-4524 son qarori bilan 2020-2024-yillarda farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish konsepsiysi tasdiqlandi. Ushbu hujjat dori vositalarining sifatini oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va korrupsiyaga qarshi kurashish kabi masalalarni o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-apreldagi 149-son qaroriga muvofiq, dori vositalari va tibbiy buyumlarni ulgurji va chakana sotuvchi tashkilotlarga "Asl-belgisi" milliy axborot tizimiga ulanish majburiyati yuklatildi. Ushbu tizim raqamli markirovka orqali mahsulotlarning muomalaga kiritilishi, bo'lishi va chiqarilishi bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etishni nazarda tutadi. Bu chora sifatsiz va qalbaki dori vositalarining oldini oloshga qaratilgan. 2025-yil 5-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig'ilishida ishtirok etdi. Yig'ilishda mamlakatda korrupsiyaviy holatlar tahlil qilinib, ularni oldini olish borasida kelgusidagi ustuvor vazifalar belgilandi. Prezident Sh.M.Mirziyoyev korrupsiyani "Jamiyat tanasidagi saraton" deb atab, uni bartaraf etish uchun qat'iy choralar ko'rish zarurligini ta'kidladi.

Xulosa. Farmatsevtika sohasidagi korrupsiya jamiyat salomatligiga jiddiy tahdid soluvchi omillardan biridir. Dori vositalarining narxlarini asossiz oshirish, sifatsiz mahsulotlarining paydo bo'layotganligi, dori vositalarini sotish va olish jarayonlarida manfaatlar to'qnashuvi kabi holatlar nafaqat iqtisodiy zarar keltiradi, balki aholining hayot sifatiga, salomatligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Agar bunday muammoga har tomonlama tizimli yondashilmasa, farmatsevtika sohasidagi korrupsiya davom etib, bemorlarning hayoti, iqtisodiy barqarorlik va sog'liqni saqlash tizimining samaradorligiga putur yetkazishi mumkin. Shu sababli, korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada kuchaytirish va ularning samaradorligini oshirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Farmatsevtika sohasida nazorat kuchaytirilgan bo'lsa ham, sifatsiz yoki qalbaki dori vositalarini uchrayotganligini ko'rib, bilib turibmiz. Bunday holatning ortib borayotganligiga sabab bo'layotgan sertifikatlash va litsenziyalash jarayoning shaffofligi yetarlicha nazoratga olinganmikin?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.A.Odilov, A.A.Ermetov, A.Insopov, D.Iymanova, D.To‘xtaboyeva, J.N.Polvonov, H.Holiquulova, J.Karimjonov, K.D.Saipova, M.Topildiyeva, M.M.Xaydarov, O.Alimardonov, R.H.Murtazayeva, R.Xomitov, S.M.Atadjanova, T.I.Doroshenko – O‘zbekistonning eng yangi tarixi oliv o‘quv yurtlarning nomutaxassis ta’lim yo’nalishlari uchun darslik. 234 bet.
2. B.X.Boltayeva, R.K.O‘dayev – O‘zbekistonning eng yangi tarixi modulidan uslubiy qo‘llanma. 71 bet.
3. “**Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi kitob. 2017-yilda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish markazi.**
4. Kenjaboy o‘g, O. D. R., & Magripovna, A. D. (2024). SOHIBQIRON AMIR TEMUR HARBIY BOSHQARUV TIZIMI TARIXSHUNOSLIGI. *SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 7(2), 131-136.
5. Kenjaboy o‘g, O. D. R. (2023). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI HARBIY SAN’ATI TARIXINING HOZIRGI KUN MILLIY ARMIYAMIZDA TADBIQ ETILISHI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(34), 183-189
6. Kenjaboy o‘g, O. D. R. (2023). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI HARBIY SAN’ATI TARIXINING HOZIRGI KUN MILLIY ARMIYAMIZDA TADBIQ ETILISHI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(34), 183-189.